ONLINE JOURNAL
E-ISSN:3060-5490

INSTITUTE OF UZBEK NATIONAL
MUSICAL ART NAMED AFTER YUNUS RAJABI

Milliy Madaniyat Jurnali - Журнал Национальной Культуры

Journal of national CULTURE

Received: 25.12.2025 · Accepted: 21.03.2026 · Published: 31.03.2026
DOI: https://doi.org/10.64681/wgc3aq81

ilmiy uslubiy jurnali – научно-методический журнал – research and methodological journal

Institute of Uzbek National Musical Art named after Yunus Rajabi
JOURNAL OF NATIONAL CULTURE, 1(2), 2026
www.jnculture.uz

“Qora sochim” – “Tanavor”larning ona maqomi

(Qora sochim’ as the Mother Maqom of the ‘Tanavor’ Cycle)

Iroda Ganiyeva

Department of Uzbek Music History,
The State Conservatory of Uzbekistan,
100027, Botir Zokirov, 1.
Uzbekistan/Tashkent

Annotatsiya

O‘zbek xalqi behisob musiqiy merosi janrlarga boydir. Ularda mujassam topgan rang-barang musiqiy namunalar, milliy qadriyatlar va vohaviy xususiyatlar bilan sug‘orilgan an’anaviylik kasb etgan xalq folklori va mumtoz asarlaridan tashkil topgan. Markaziy Osiyoning azal-azaldan ilm-fan markazlari hisoblanmish Buxoro, Xorazm va Farg‘ona vodiysida musiqaning mumtoz namunalari munosib o‘rnini topganligini e’tirof etish lozim. Xalq ijodiyotida yuzaga kelgan har bir namuna o‘z xarakteri va xususiyatlariga ega. Ular musiqa ijodiyoti va ijrochiligining jonli jarayonida ommalashib tobora ko‘payib bormoqda. Aynan, “Tanavor” janriga nazar tashlasak, avvalo tarixiy jarayonini, shakllanish davrini aniqlab olish lozim. “Tanavor” musiqa ijodiyotining o‘zida biron-bir janr yoki talqin qolmaganki, unda “Tanavor” ijro etilmagan bo‘lsa. Shu bois musiqa ijodiyoti, musiqa ijrochiligi sohasida barcha yo‘nalishlar va uslublarda “Tanavor”larning u yoki bu namunasi o‘ziga xos ifodasini topgan. Mazkur maqolada xalqimiz sevib, ardoqlab kelgan milliy musiqiy namunalaridan biri bo‘lgan “Tanavor”larning ona maqomi bo‘lgan “Qora sochim” namunasining shakllanish tarixi, ijro xususiyatlari hamda kompozitorlik ijodiyotidagi o‘rniga nazar solinadi.

Kalit so‘zlar: tanavor, kompozitor, qora sochim, kuy, ijro, yalla, folklor, asar.

Abstract

The Uzbek people possess a rich musical heritage characterized by a wide variety of genres. It includes diverse musical examples imbued with national values and regional characteristics, forming traditional folklore and classical works. It should be noted that in such ancient centers of science in Central Asia as Bukhara, Khorezm, and the Fergana Valley, classical musical traditions have found their rightful place. Each piece created in folk art has its own character and distinctive features. These works continue to spread and develop within the living process of musical creativity and performance. In particular, when examining the genre of “Tanavor”, it is important first to determine its historical development and stages of formation. In the field of musical art, there is hardly any genre or interpretation in which “Tanavor” has not been performed. Therefore, in all directions and styles of

musical creativity and performance, various examples of “Tanavor” can be found, each reflecting its unique expression. This article explores the history of formation, performance characteristics, and the role in compositional creativity of one of the most beloved national musical examples of our people — “Tanavor”, specifically its primary form known as “Qora Sochim”.

Keywords: tanavor, composer, qora Sochim, melody, performance, yalla, folklore, work.

Аннотация

Узбекский народ обладает богатым музыкальным наследием, отличающимся разнообразием жанров. В нем воплощены яркие музыкальные образцы, национальные ценности и региональные особенности, сформировавшие традиционный фольклор и классические произведения. Следует отметить, что в таких древних научных центрах Центральной Азии, как Бухара, Хорезм и Ферганская долина, классические образцы музыки заняли достойное место. Каждое произведение, созданное в народном творчестве, имеет свой характер и особенности. Они широко распространяются и продолжают развиваться в живом процессе музыкального творчества и исполнительства. В частности, рассматривая жанр «Танавор», необходимо прежде всего определить его историческое развитие и этапы формирования. В музыкальном искусстве практически не существует жанра или направления, в котором бы не исполнялся «Танавор». Поэтому в музыкальном творчестве и исполнительстве во всех направлениях и стилях можно встретить те или иные образцы «Танавора», отражающие его уникальную выразительность. В данной статье рассматриваются история формирования, исполнительские особенности и роль в композиторском творчестве одного из любимых народом национальных музыкальных образцов — «Танавора», а именно его основного образца «Кора сочим».

Ключевые слова: танавор, композитор, кора сочим, мелодия, исполнение, ялла, фольклор, произведение.

O‘zbek xalqi behisob musiqiy merosi janrlarga boydir. Ularda mujassam topgan rang-barang musiqiy namunalar, milliy qadriyatlar va vohaviy xususiyatlar bilan sug‘orilgan an’anaviylik kasb etgan xalq folklori va mumtoz asarlaridan tashkil topgan. Markaziy Osiyoning azal-azaldan ilm-fan markazlari hisoblanmish Buxoro, Xorazm va Farg‘ona vodiysida musiqaning mumtoz namunalari munosib o‘rnini topganligini e’tirof etish lozim. Shakllangan musiqiy meros bizning davrimizga kelib, musiqa ijodiyoti jarayoniga, ayniqsa, zamonaviy bastakorlik-

kompozitorlik ijodiyotiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Zamonasining ruhiyati bilan sug‘orilgan turli shakllarda, cholg‘u va ashula yo‘llarida yangidan-yangi asarlar yaratilgan va yaratilib kelmoqda. Xalq ijodiyotida yuzaga kelgan har bir namuna o‘z xarakteri va xususiyatlariga ega. Ular musiqa ijodiyoti va ijrochiligining jonli jarayonida ommalashib tobora ko‘payib bormoqda. Aynan, “Tanavor” janriga nazar tashlasak, avvalo tarixiy jarayonini, shakllanish davrini aniqlab olish lozim.

“Tanavor” musiqa ijodiyotining o‘zida biron-bir janr yoki talqin qolmaganki, unda “Tanavor” ijro etilmagan bo‘lsa. Shu bois musiqa ijodiyoti, musiqa ijrochiligi sohasida barcha yo‘nalishlar va uslublarda “Tanavor”larning u yoki bu namunasi o‘ziga xos ifodasini topgan.

“Tanavor” o‘zbek xalq lirik kuyi va shu kuy bilan ijro etiladigan raqs bo‘lib, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “Tanavor-o‘zbek xalq raqs kuylaridan birining nomi” - deb beriladi [1, b.119].

“Tanavor”larni shakllanish jarayonlari, hamda ularning ijrochilik amaliyotiga kirib kelishlari va rivojlanish yo‘llarini tasavvur qilgandan so‘ng bir xulosa qilishga ehtiyoj topiladi. Ko‘plab keltirilgan fikrlar, ijrochilarning mulohazalari, olimlarning tadqiqotlariga asoslanib “Tanavor”larni janrlik xususiyatiga ko‘ra ikki guruhga ajratish mumkin. Birinchisi – aytim yo‘li. Ikkinchisi – cholg‘u yo‘llaridir. Shuni qayd etish joizki, Farg‘ona-Toshkent mumtoz yo‘llarida yaratilgan musiqiy namunalar nafaqat aytim, balki sozandalar tomonidan cholg‘u yo‘llarida ham ijro etib kelinadi. Yoki, cholg‘u yo‘llariga so‘z qo‘yib aytim yo‘liga solishadi. Buni oddiy xalq ijro an’anasida shakllangan omillar deb qabul qilish lozimdir. “Tanavor”lar ham bundan mustasno emas.

“Tanavor”lar tasnifoti esa to‘rt mezonga asoslanadi:

Birinchisi – xalq yo‘lidagi “Tanavor”lar. Ushbu yo‘nalishni “xalq yo‘lidagi qo‘shiqlar”ga ham qiyoslashadi, lekin, qayd etish joizki “Tanavor”larning tahlili, ularni mumtozlik tarkibga ega ekanligidan dalolat beradi. Ularga “Qora soch”, “Sumbula”, “Adolat Tanavori” kabilar kiradi.

Ikkinchisi – mumtoz yo‘ldagi “Tanavor”lar. Bu yo‘nalishda yaratilgan “Tanavor”larga “Yovvoyi Tanavor”, “Qalandar Tanavori”, “Farg‘ona Tanavori”, “Qo‘qoncha” larni misol qilish joizdir.

Uchinchisi – mumtoz bastakorlik ijodiga mansub “Tanavor”lar. Bu turi bastakorlikning qayta ishlash amallariga xosdir. Bular “Ul kun janon” (Madali hofiz tomonidan yaratilgan), “Namangan Tanavori” (K.Rahimov ishlagan asar), “Gulbahor va Tanavor”, “Yangi Tanavor” (M.Mirzayev talqini) “Marg‘ilon Tanavori” (M.Murtazoyev va M.Madaliyevlar) namunalaridir.

To‘rtinchisi – Lokal xususiyatlarga ega bo‘lgan “Tanavor”lar. “Qo‘qon Tanavori”, “Farg‘ona Tanavori”, “Namangan Tanavori”, “Marg‘ilon Tanavori” va h.k.


O‘zbek folklor musiqa san’ati, og‘zaki an’anadagi professional musiqa san’atida musiqiy janrlar talaygina. “O‘zbek milliy ashulachiligining shartli xususiyatlaridan biri shundaki, - deb ta’kidlaydi R.Yunusov, - uning shakl va navlari, toifa va uslubiy ko‘rinishlari xilma-xildir”, ya’ni “Tanavor”lar ashulaning shakllaridan biri yoki yangi navlaridan biri sifatida gavdalangan [2, b.18].

“Tanavor”larni shakllanib ommalashish jarayoni, o‘ziga munosib xususiyatlar bilan sug‘orilishi, yangi yaratilgan “Tanavor” oldingilarini davomi yoki rivoji ekanligi hamda so‘z matnlarining janrga xos tanlanishi barchasi “Tanavor”larni muqimligini ta’minlovchi omillardir. Shu bois ham amaliyotda 20 ga yaqin “Tanavor”larning namunalari yaratilgan. Lekin, ularni “Tanavor”larga xos jihatlari o‘rganilib bir tartibga keltirilmagan. “Qora sochim”, “Endi sendek”, “Farg‘ona Tanavori”, “Qo‘qon Tanavori”, “Yovvoyi Tanavor”, “Yangi Tanavor”, “Gulbahor” va “Tanavor”, “O‘yin Tanavor”, “Marg‘ilon Tanavori”, “Namangan Tanavori” kabi namunalar shular jumlasidan. Ularning ayrimlarini variant namunalari mavjud bo‘lib, amaliyotda keng ommalashgan.

“Qora sochim” – “Tanavor”larning ilk namunasi. XIX asr ikkinchi yarmi, XX asrning boshlarida “Qora sochim”’ ashula yo‘li deb boshqa ko‘p so‘zlar bilan ham

aytilgan (yuqorida bu haqda qayd etilgan). O‘zining shakl, tuzilishi va xususiyati doyrasida “Tanavor”larning asosiy namunasi hisoblanadi” [3, b.6].

Qora sochim



“Qora sochim o‘sib qoshimga tushdi” so‘zlari bilan ijro etiladigan ashula xalq orasida “Qora soch”, “Qora sochim”, “Qora sochim o‘sib” kabi nomlar bilan mashhur bo‘lganligi bir qator adabiy manbalarda bayon qilingan. Xususan, Cho‘lpon o‘zining “Kecha va kunduz” romanida yozadi: “Zeboxonning ovozi, ashulalari, undan kattaroqlarni (mansabdorlar nazarda tutilmoqda) ham sudrab keltiradi... Ikkalasi yuzlari yulduzday charaqlagani holda, darichadan ichkariga hatlagan vaqtlarida Zeboxonning “Qora sochim” kuyiga aytilayotgan ashulasi quloqlarni shirin-shirin qitiqlamoqda edi...”

Cho‘lpon “Qiz qo‘shig‘i” she’rida esa: “Bu narsa “Qora sochim o‘sib” degan xalq qo‘shig‘ining “Andijoncha”, “Iskobilcha”lari va ham “Odilchaxon” degan kuyiga to‘g‘ri keladi”, – deb bayon qiladi [4, b.43].

Keyinchalik “Tanavor” namunalari nomi bilan yuritilgan “Adolcha” va “Farg‘ona tanavori” (“Endi sendek”) kabi ashulalar “Qora soch” asosida vujudga kelgan. Har ikki namuna ham o‘ziga xos tarixga ega bo‘lib, kuy jihatidan katta o‘zgarishlarga uchramagan. “Endi sendek” namunasi Mavlono Muqimiyning murabbalaridan biri asosida yaratilgan. Bu matn aynan “Qora sochim” kuyiga solinib aytilgan. Ko‘proq yalla janriga moslashtirib ijro etilgani asarning sur’ati va ijrosida katta emotsionallik bilan o‘z aksini topganligini e’tirof etish lozim.

“Qo‘qon shahrining Isfara guzarida Adolxon aya (XX asrning 40-yillarida yashagan) bo‘lardi. Adolxon aya “Qora sochim”ni dutor chertib, juda go‘zal ijro etardilar. Qo‘qonning boshqa yallachi-ijrochi ayollari: Halimaxon, Hurmatxon, Yodgorxon (mashhur xonanda Komiljon Baratovning onalari), Bedamxon, Karomatxon (xalq shoiri X.X.Niyoziy rafiqasi) ayalar bilan “Tanavor”ning mavjud bir nechta namunalarini birin-ketin maromiga yetkazib ijro etganlar. Bedamxon aya “Tanavor”ning namunalaridan biri bo‘lgan “Sumbula”ni dutor chertib, benihoya jozibali ijro etish bilan birga chiroyli raqsga tushganlar. San’at ixlosmandlari bu go‘zal ayolning faqatgina yallalariga emas balki, raqslariga ham mahliyo bo‘lganlar[5].

Asar ijrosi dastavval “Qora sochim...” so‘zi bilan boshlangani uchun tinglovchilarning e‘tiboriga tushgan. Aynan shu asar “Tanavor”larning keyingi namunalarini yaratilishiga, shakllanishiga, tarkibiy tuzilishiga, lad xususiyatlariga, usul bilan bog‘liq jihatlariga va ayniqsa, kuy - ohang tizimlariga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Xalq orasida mashhur bo‘lgan “Qora sochim” namunasi ilk bor mashhur kompozitor A.Kozlovskiy tomonidan atoqli o‘zbek xonandasi Halima Nosirova ijrosidan yozib olinib, notaga tushirilgan va kompozitor tomonidan professional asar ko‘rinishida qayta ishlangan. Kuy - ohang asliga saqlanib, orkestr ijrosiga mo‘ljallangan. Bu namuna O‘zbekistonda faoliyat olib borib, o‘zbek xalq musiqasini o‘rganish, yozib olish, notalashtirish va shunga mos tadqiq etishda munosib hissa

qo‘shgan Ye.Romanovskayaning ilmiy tadqiqotlarida o‘z aksini topgan. “Qora sochim”ning Halima Nosirova ijrosidagi nota namunasi asosiy manba sifatida olinadi.

Halima Nosirova talqinidagi “Qora sochim” xalq qo‘shig‘i asosida kompozitor A.Kozlovskiy 1938-yili “Tanavor” simfonik poemasini yaratdi. *(Ilova-1)* A.Kozlovskiy “Qorasochim” xalq qo‘shig‘ini yozib olib, qo‘shiqning kuy yo‘lini aynan Halima Nosirova ijro etgan talqinida saqlab qolgan. Kompozitorning xalq og‘zaki ijodiga bo‘lgan murojaati muvaffaqiyali bo‘lib, keyinchalik Halima Nosirova uchun poemaga ovoz yo‘lini yozib beradi. Asarda ayol qalbining fig‘oni, ayriliq, mehr-muhabbati va sadoqati aks etgan.



Kompozitor A.Kozlovskiy



H.Nosirova, “Qora sochim” ijrosi

Aslida “Tanavor”larning professional kompozitorlik ijodiyotiga kirib kelishi taniqli kompozitor A.Kozlovskiy nomi bilan bog‘liqdir. Chunki, “Tanavor”, “O‘zgancha”, “Fig‘on” va “Gul yuz uzra” kabi asarlarni A.Kozlovskiy 1938-yilda ovoz va simfonik orkestr uchun qayta ishlagan.

“F.Kozlovskiy bu dardli, lirik, raqssimon ashulani avval fortepiano uchun garmoniyalashtirib, keyin simfonik orkestrga moslashtirgan. 1951-yili esa mazkur kuy asosida “Tanovar” nomli simfonik poemani yaratdi. Kompozitor frigiy ladida kuyning ichki tebranishlardagi avj tomon va ko‘proq pasayish harakatlarni, hamda o‘zbek xalq kuylarining xususiyatlaridagi ladning II, III, VI, VII bosqichlarini noturg‘un va o‘zgaruvchan alomatlarini hisobga olgan holda ko‘proq subdominanta (S) akkordlarini qo‘llab, asar haqidagi taassurotini boyitishga harakat qilgan. Shular

orqali kuyning ruhini va teran mazmunini saqlab, poemada yagona mavzu sifatida qo‘llab uni juda ham mohirlik bilan simfonik orkestming turli cholg‘u guruhlarning registr tembrlaridan unumli foydalangan holda rivojlantiradi. Bunda u goh dardli-lirik, goh avjlarda ko‘tarinki ruhiy hayajon baxsh etib, goh ma’yus lirik xayoliy holatga chorlash orqali, yuqori saviyali badiiy simfonik poema bunyodga kelgan. Bu asar o‘zbek xalq kuylarini garmoniyalashtirishda, qayta ishlashda namuna sifatida xizmat qilmoqda” [6, b.19].

Shu bois kelajak avlod uchuy muhim bo‘lgan jihatlarni xali imkon bor ekan, asosli tadqiq etish darkor. “Tanavor” janri namunalarini o‘rganish va saqlash murakkab, muhim va dolzarb masaladir. Muhim jihatlaridan biri zamonaga munosib amaliyotda o‘rin topish bilan birga rivojlanmoqda, ijodiyot uchun asos bo‘lmoqda. XXI asrning boshlariga kelib, xalq orasida tanilgan xonanda va sozandalarning muallim sifatida “Tanavor”lari yaratilmoqda. Ushbu ijod maxsullarining zamonga mos ifodaviyligi, “Tanavor”larning ilhombaxshligi hamda ijod uchun manba ekanligi muhimi xalqimiz musiqa san’atining ajralmas qismiga aylanganligidan dalolatdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – Toshkent. – S. 119.
2. Yunusov R. O‘zbek xalq musiqasi ijodi. – Toshkent: Metodik markaz, 2000. – S. 7–18.
3. Ganiyeva I. Tanavorlar. – T., 2003. – 6 b.
4. Cho‘lpon. Kecha va kunduz. – T., 2000. – 43 b.
5. Suhbat: muallifning R. Mazohidova bilan bo‘lgan suhbati.
6. Jabborov A. O‘zbek musiqasi tarixi. – T., 2018. – 119 b.

References

1. *O‘zbek tilining izohli lug‘ati* [Explanatory Dictionary of the Uzbek Language]. Tashkent, n.d. (in Uzbek)
2. Yunusov, R. *O‘zbek xalq musiqasi ijodi* [Uzbek Folk Music творчество]. Tashkent: Metodik markaz, 2000. (in Uzbek)
3. Ganiyeva, I. *Tanavorlar* [Tanavor Pieces]. Tashkent, 2003. (in Uzbek)
4. Cho‘lpon. *Kecha va kunduz* [Night and Day]. Tashkent, 2000. (in Uzbek)
5. Interview with R. Mazohidova conducted by the author. (in Uzbek)
6. Jabborov, A. *O‘zbek musiqasi tarixi* [History of Uzbek Music]. Tashkent, 2018. (in Uzbek)